

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

M.A.Jo'rayeva	
Safarnomaning paydo bo'lishi va janr sifatida shakllanishi	5
S.A.Xaqnazarova	
Abdulla Sher lirikasida formal an'analar	8
S.A.Odilova	
Badiiy asarda ikkinchi darajali personajlar talqini	12
B.N.Isakova	
O'tkir Hoshimov va Jek London ijodida mavzular ko'lami qiyosiy tahlili	15
Sh.R.Maxamadjonova	
Adabiyotda aforizm tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari	19
M.S.A'zamjonova	
Kitobxon kodi: badiiy asarda psixologizm	22
G.Xaydarova	
"Ona lochin vidosi" romanida kolliziya konflikt	26
M.Б.Ботирова	
XX asr o'zbek adabiyotida psixologik taxilning o'ziga xos xususiyatlari	28
A.Baba	
Comparison of eastern and western variants of the <i>Koroglu</i> epic	31

TILSHUNOSLIK

I.M.Azimov	
Qayum ramazon va uning "O'zbek tilining birlashgan imlo qoidolari" risolasi xususida	37
M.F.Yo'ldasheva	
Jek London asarlari tarjimalarining lingvopragmatik tadqiqi	43
U.T.Muratbaeva	
Lexical and semantic features of the expression of ethical concepts in the karakalpak language	50
S.B.Hafizov	
The semantic network of "head" in english and uzbek based on lexical field comparison	54
R.T.O'rinboyeva	
Qo'shrabot tumani shevasining fonetik xususiyatlari	59
A.B.Vosiljonov	
Farg'ona viloyati shevalari bazasini yaratishning umumiy nazariy asoslari	63
M.V.Ahmadova	
Syllable rhythm and prosody: the theory of classification of languages by rhythm and the manifestation of isochrony in the poetic system	68
M.N.Najmiddinova	
Linguopragmatic analysis of phraseological units and idioms relating to the concept of hospitality in english and uzbek	73
N.A.Beknazarova, M.Y.Madiyeva	
The definition and key components of communicative competence in language learning	85
X.A.Sarimsokov	
Sport sharhlarini asosini tashkil qiluvchi leksik birliklarning diaxron tadqiqi	88
S.A.Raxmonberdiyeva	
Qurilish sohasiga oid ingliz va o'zbek tillaridagi leksik birliklarning lingvistik tahlili	93
X.A.Asqaraliyeva	
Media-kommunikativ muloqotda paralingvistik vositalar	96
H.X.Bozorov	
O'zbek xalq ertaklaridagi obrazlar: lingvopoetik, badiiy va falsafiy tahlil	100



JEK LONDON ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK TADQIQI

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПЕРЕВОДОВ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ДЖЕКА ЛОНДОНА

LINGUOPRAGMATIC STUDY OF TRANSLATIONS OF JACK LONDON'S WORKS

Yo'ldasheva Mahliyo Faxriddin qizi 
Namangan davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Jek Londonning "Martin Iden" va "Oq So'yloq" asarlari o'zbek hamda rus tillariga tarjimalari lingvopragmatik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Muallif uslubi, badiiy tasvir vositalari va madaniy konnotatsiyalarni chuqur o'rganish orqali aslyat va tarjima matnlari o'rtasida semantik, stilistik va pragmatik munosabatlar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori darajadagi adekvat tarjima nafaqat lingvistik ekvivalentlarni, balki madaniy-psixologik kontekstni ham sinchiklab hisobga olishga bog'liq. Lingvopragmatik tahlil esa badiiy tarjimaning emotsional va estetik ta'sirini aslyat darajasida saqlash uchun samarali usul sanaladi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются узбекский и русский переводы произведений Джека Лондона «Мартин Иден» и «Белый Клык» с лингвопрагматической точки зрения. Посредством глубокого анализа авторского стиля, художественно-выразительных средств и культурных коннотаций определяются семантические, стилистические и прагматические соответствия между оригиналом и переводами. Результаты исследования показывают, что качественный адекватный перевод требует учета не только лингвистических эквивалентов, но и культурно-психологического контекста. Лингвопрагматический анализ представляет собой эффективный метод для сохранения эмоционального и эстетического воздействия художественного текста на уровне оригинала.

Abstract

This article analyzes the Uzbek and Russian translations of Jack London's "Martin Eden" and "White Fang" through a linguo-pragmatic approach. By closely examining the author's style, artistic devices, and cultural connotations, the study identifies semantic, stylistic, and pragmatic relationships between the source and translated texts. The findings show that a highly adequate translation depends not only on linguistic equivalence but also on a careful consideration of the cultural and psychological context. Linguo-pragmatic analysis proves to be an effective method for preserving the emotional and aesthetic impact of the literary text at the level of the original.

Kalit so'zlar: lingvopragmatika, badiiy tarjima, konnotatsiya, illokutiv kuch, ekstralingvistik omillar, semantik moslik, stilistik adekvatlik.

Ключевые слова: лингвопрагматика, художественный перевод, коннотация, иллокутивная сила, экстралингвистические факторы, семантическое соответствие, стилистическая адекватность.

Key words: linguo-pragmatics, literary translation, "Martin Eden", "White Fang", connotation, illocutionary force, extralinguistic factors, semantic equivalence, stylistic adequacy.

KIRISH

Amerika adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri bo'lgan Jek London XX asr boshlaridagi realistlik va naturalistik oqim vakili sifatida adabiy merosda alohida o'rin egallaydi. U o'zining sermahsul ijodi, hayotiy tajribasi va gumanistik qarashlari bilan nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan muallif sifatida e'tirof etiladi. Jek London ijodining asosiy yo'nalishlari insonning hayotga bo'lgan ichki kurashi, ijtimoiy tengsizlikka qarshi chiqish, tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanat, shuningdek, shaxsiy o'sish va o'zini anglash kabi mavzular atrofida shakllangan.

Yozuvchining "Martin Iden", "Oq so'yloq", "Hayotga muhabbat" kabi asarlari realistlik tasvir, chuqur psixologik tahlil va kuchli ijtimoiy mazmun bilan ajralib turadi. Ayniqsa, u o'z qahramonlari orqali inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ochishga, ularning hayotiy tanlovlari, orzulari va iztiroblarini tasvirlashga alohida e'tibor qaratadi. London asarlarida aks ettirilgan g'oyalar va

obrazlar o'zbek tiliga tarjima qilinganda ham o'z badiiy-estetik kuchini saqlab qolgan holda, mahalliy o'quvchi uchun tushunarli va ta'sirchan bo'lishi muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Jek London ijodini lingvistik, stilistik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish bugungi adabiy-tarjimaviy jarayonlar uchun ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarbdir. Ayniqsa, uning asarlaridagi leksik-semantik qatlam, stilistik boyliklar va pragmatik unsurlarni tahlil qilish, ularning o'zbek va rus tillariga tarjimalaridagi adekvatlik va ekvivalentlik masalalarini yoritish zamonaviy filologiya fanida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jek London shaxsiy hayoti va adabiy qarashlari orasidagi ziddiyatli munosabatlar ko'plab tadqiqotchilar tomonidan turlicha baholangan. Karolyn Jonson o'zining "Jack London: An American Radical?" nomli tadqiqotida yozuvchining o'zini "radikal sotsialist" deb e'lon qilganiga qaramay, uning hayot tarzida burjuaziya qadriyatlariga yaqinlashgan jihatlarini ta'kidlab, bu holatni ideallar va amaliy faoliyat o'rtasidagi nomuvofiqlik deb talqin qiladi. Jonson Londonning sotsialistik qarashlarini ko'proq idealistik va nazariy jihatdan kuchli, biroq amaliy jihatdan zaif deb hisoblaydi. U yozuvchining proletariat manfaatlarini himoya qilganiga qaramay, shaxsiy hayotida badavlatlikka intilganini e'tirof etadi. Bu qarash esa ba'zi olimlar, xususan, Erl Labor tomonidan tanqid qilingan bo'lib, ular Londonning sotsialistik pozitsiyasini jiddiy va mazmunli ijtimoiy faollik sifatida baholash tarafdori bo'lishgan.

Boshqa bir olim S. Hodson esa Jek London ijodida irqiy tasvirlar qanday ifodalangani va ularning zamonaviy adabiy tanqidagi ahamiyatini o'rganadi. "Jack London: One Hundred Years a Writer" maqolasida u Londonni bir tomondan o'z davridagi irqiy stereotiplarga ergashgan, boshqa tomondan esa ularni murakkab yoritishga uringan yozuvchi sifatida baholaydi. Bu jihatlar London ijodini biryozlama emas, balki murakkab sotsiokultural kontekstda o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Hodsonning fikricha, yozuvchining asarlarida irqchilik bilan bir qatorda unga qarshilik ruhiyati ham mavjud bo'lib, bu Londonni tanqidiy yondashuv asosida o'rganishni taqozo etadi.

Shuningdek, London ijodi xalqaro miqyosda ham keng o'rganilgan. Janubiy Koreya adabiyotshunoslari ham yozuvchining ijodiga befarq qolmaganlar. Jumladan, Seul Milliy Universiteti olimi Kim Taeyoung "Jack London and the Crisis of Masculinity" maqolasida London qahramonlarining gender rollari bilan Koreys adabiyotidagi erkaklik obrazlarini qiyosiy tahlil qilgan. Shu bilan birga, Park Ji-Hoon esa "White Fang" asarini ekologik tanqid nuqtayi nazaridan yoritgan bo'lib, hayvonlar huquqlari masalasi bilan bog'lagan.

Hindistonlik adabiyotshunolar ham London ijodiga qiziqish bildirgan. G.N. Devy yozuvchining hind adabiyotiga, ayniqsa, Mulk Raj Anand ijodiga ko'rsatgan ta'sirini tahlil qilgan. Rukmini Bhayi Nair esa "To Build a Fire" hikoyasini inson va tabiat o'rtasidagi ziddiyatlar metaforasi sifatida o'rgangan. Bu yondashuv Londonning global adabiy o'rni va transmilliy ta'sirini ochib berishga xizmat qiladi.

Jek Londonning "Martin Iden" romani esa janr jihatdan ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi. Roman bir vaqtning o'zida K nstlerroman (ijodkor shaxsning shakllanishi), Bildungsroman (individdning yetilishi) hamda ijtimoiy tanqid janrlarini qamrab oladi. Shu sababli, bu asar adabiyotshunolar tomonidan turlicha talqin qilingan: ayrimlar uni sotsialistik risola sifatida, boshqalar esa shaxsiy individuallikni madh etuvchi asar sifatida baholashgan. Shunga qaramay, "Martin Iden" romani ommaviy o'quvchilar orasida keng tarqalib, Jek Londonning shaxsiy biografiyasini milliy mif darajasiga olib chiqish niyatini amalda amalga oshirganini tasdiqlaydi.

Shu nuqtai nazardan, Jek Londonning ijodini nafaqat estetik yoki sotsiologik jihatdan, balki pragmatik yondashuv asosida o'rganish ham muhimdir. XX asr 30-yillarida Ch. I. Morris tomonidan ilgari surilgan pragmatika semiotikaning asosiy bo'limlaridan biri sifatida til belgilarining faoliyatini o'rganuvchi soha bo'lib, aynan kommunikatsiyada til belgilarining ma'no kasb etish holatini tahlil qiladi. Keyinchalik J. Ostin, J. Searle, Z. Vendler kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy akt nazariyalari pragmatikaning mustaqil ilmiy sohaga aylanishiga zamin yaratdi. Bu nazariyalarning asosiy g'oyasi shundaki, har qanday nutqiy ifoda — bu faqatgina axborot uzatish emas, balki so'zlovchining ijtimoiy-psixologik niyati va munosabatini ifodalovchi vositadir.

Shunday qilib, Jek London asarlarini lingvopragmatik jihatdan tahlil qilish, ya'ni belgilar tizimi, kommunikativ kontekst va nutqiy niyatlar orqali anglash — uning murakkab obrazlari va qarama-qarshi g'oyalarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tarjima jarayonida mutarjimlar ko'pincha tilshunoslik va madaniyatlararo tafovutlarga urg'u berib, matnning pragmatik jihatlarini yetarlicha hisobga olmaydilar. Bunday yondashuv natijasida manba til va maqsadli til o'rtasidagi kontekstual, mantiqiy hamda kommunikativ uyg'unlik izdan chiqadi. Bu esa tarjima matnida semantik noaniqliklar va nutqiy izchillik buzilishiga olib keladi. Asosiy sabab — pragmatik jihatlar ko'pincha lingvistik tenglik masalalaridan ajratib qo'yilganidir. Natijada, tarjima faqat so'zma-so'z ekvivalent asosida quriladi, matnning ma'nosi esa maqsadli auditoriya tomonidan to'liq anglashilmaydi yoki madaniy nuanslar e'tibordan chetda qoladi.

Sifatli tarjima uchun esa faqat lingvistik vositalarni tahlil qilish yetarli emas, balki badiiy matnning estetik mazmuni, ta'sirchanligi va obrazlilik darajasini saqlab qolishga xizmat qiladigan stilistik va pragmatik elementlarni aniqlash lozim bo'ladi. Shu orqali manba tilidagi va tarjima tilidagi uslubiy vositalarning semantik va funksional mosligi aniqlanib, tarjima samaradorligi oshiriladi. Uslubiy rang-baranglikka ega leksik birliklar tahlili esa pragmatik jihatdan qanchalik muvofiqlik mavjudligini ko'rsatishga imkon yaratadi. Bunday kompleks yondashuv esa nafaqat tarjimashunoslik nazariyasining rivojlanishiga, balki amaliy tarjima jarayonining sifat jihatidan yuksalishiga xizmat qiladi.

Tarjima faoliyatida leksik birliklarning konnotativ ma'nolarini chuqur tahlil qilish muhim vazifalardan biridir. Bu — tarjimada to'g'ri semantik talqin va kontekstga mos moslashuvni ta'minlovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Konnotatsiyalarni noto'g'ri tushunish esa ma'nodagi noaniqliklarga, madaniy yoki stilistik buzilishlarga olib keladi[1]. Shuning uchun tarjimon so'zning nafaqat lug'aviy, balki emotsional, ijtimoiy-madaniy va stilistik ma'nolar qatlamini ham hisobga olishi lozim.

Shu jihatdan qaraganda, tarjima jarayonida konnotativ ma'nolarni to'g'ri anglash, pragmatik aniqlik va kommunikativ moslikni ta'minlashga yordam beradi. Bunday yondashuv esa nafaqat tarjimaning informativ darajasini, balki uning estetik va madaniy qabul qilinish darajasini ham oshiradi. Shunday qilib, manba matn mazmunining to'laqonli ifodasi, kontekstual moslikni saqlash va pragmatik elementlarga e'tibor qaratish — tarjima sifatini oshirishda hal qiluvchi omillardan biridir.

Sh.Safarovning ta'kidlashicha, pragmatika tor doiradagi nutqiy kontekst bilan cheklanmasdan, semantika va sintaksis sohalarini ham o'z ichiga oluvchi keng ko'lamli yo'nalishdir. Unga ko'ra, pragmatik tahlil so'zlovchi va tinglovchi tomonidan matndagi propozitsiyalarni bir xil darajada tushunishga asoslanadi[2]. Shu bois, badiiy tarjimaning pragmatik jihatlarini tadqiq etishda lug'aviy birliklarning semantik yuklamasi, sintaktik qurilmalarning xususiyatlari va ularning kontekstda qanday ishlatilishi alohida e'tiborga loyiqdir. Bu esa tarjimaning umumiy mazmuni va ifoda uslubining to'g'riligini ta'minlashga xizmat qiladi. Jek Londonning "Martin Iden" va "Oq So'yloq" asarlari garchi mazmun va g'oya jihatidan farqlansa-da, ularni boshqa tillarga tarjima qilishda lingvopragmatik tafovutlar muhim rol o'ynaydi. Har ikkala asarda muallif o'z davrining ijtimoiy va madaniy muhitini aks ettirgani sababli, tarjimada kontekstual, madaniy va illokutiv elementlarni to'g'ri yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, "Martin Iden" romanidagi quyidagi satrlarda: *"Surely there were no live, warm editors at the other end. It was all wheels and cogs and oil-cups—a clever mechanism operated by automats,"* [5]— yozuvchi nashriyot tizimini insoniylikdan yiroq, sovuq va mexanistik tarzda tanqid qiladi. Bu yerda *"live, warm editors"* iborasi orqali muallif muharrirlarning samimiy va insoniy xarakterga ega emasligini ko'rsatmoqchi bo'ladi. *"wheels and cogs and oil-cups"* tasvirlari esa tizimni hissiz, avtomatik boshqaruv ostida ishlayotgan mexanizmga qiyoslaydi. *"Automats"* atamasi esa insonlarni emas, balki tizimni boshqarayotgan ruhsiz mexanik vositalarni bildiradi.

Shuningdek, *"clever mechanism"* birikmasi aslida kinoya va tanqidni o'z ichiga oladi: tizim "aqlli" emas, balki ijodiy jarayonni yo'qqa chiqaruvchi mexanizm sifatida tasvirlanadi. Bu satrlar G'arb jamiyatlaridagi texnologiyalashgan byurokratiyaning insoniy qadriyatlarni siqib chiqarishi holatini aks ettiradi.

Rus tilidagi tarjimada bu parcha quyidagicha berilgan: *"Очевидно, и в самом деле никаких живых людей по указанным адресам не было. Были просто хорошо сложенные, смазанные маслом автоматы."* [6] Bu tarjimada *"live, warm editors"* birikmasi *"никаких живых людей"*

shaklida ko'rsatilgan bo'lib, semantik jihatdan asliyatga mos tushadi. "wheels and cogs" ifodasi esa soddalashtirilib "автоматы" so'ziga qisqartirilgan bo'lsa-da, tanqidiy ohang saqlab qolinadi.

O'zbek tilidagi tarjimada esa quyidagi variant keltirilgan: "Aftidan, mazkur manzillarda bironta ham tirik jon bo'lmay, faqat yaxshi sozlangan, moylangan avtomatlar bo'lsa kerak." [7] Bu versiyada "tirik jon" iborasi orqali insoniylik aniq ifodalangan. "wheels and cogs" esa umumlashtirib "yaxshi sozlangan, moylangan avtomatlar" tarzida tarjima qilingan. Metafora va ironik ohang asliyatga sodiq qolgan holda yetkazilgan.

Tilshunos olim D.M. Xoshimovanning fikricha, tarjima davomida matndan ayrim qismlarni olib tashlash yoki yangi elementlar kiritish matnning semantik yaxlitligini buzishi mumkin. Shu bois, tarjimaning asosiy talabi — muallif fikrining kontekst, uslub va mazmun doirasida to'liq ifoda etilishi hisoblanadi.[3]

"White Fang" asaridan olingan quyidagi parcha ushbu nazariy fikrni amaliy jihatdan ko'rsatadi: "Though a long way from his full growth, White Fang, next to Lip-lip, was the largest yearling in the village..." [9] satrlarida muallif kuchukning hali to'liq voyaga yetmaganini ta'kidlaydi, ammo bu vaqtga qadar u jismoniy jihatdan tengdoshlaridan ustun ekanini qayd etadi.

O'zbek tiliga tarjimasida bu fikr quyidagicha ifodalangan: "Garchi Oq So'yloq hali to'la voyaga yetmagan bo'lsa ham har holda Lip-lipdan keyin bir yoshli kuchuklar ichida eng yirigi edi." [8] Bunda "a long way" iborasi umumlashtirilib, aniq vaqt oralig'i ifoda etilmagan. Rus tilidagi tarjimada esa: "Хотя Белый Клык еще не достиг полной зрелости..." [10] shaklida berilib, mazmun soddalashtirilgan.

Asl matndagi "measuring up alongside the full-grown dogs" iborasi rus tilida "почему сравнился со взрослыми собаками" tarzida aniq semantik moslikda aks ettirilgan bo'lsa, o'zbekcha variantda "kuch-quvvatda katta itlardan qolishmasdi" iborasi vositasida fikr kuch jihatiga yo'naltirilgan, jismoniy o'lcham emas, quvvat ustuvor bo'lgan.

"His body was slender and rangy" jumlasini rus tilida "Тело у него было поджарое и стройное" tarzida yaqin sinonimlar orqali ifodalangan. Biroq, o'zbek tarjimasida bu sifatlar umumlashtirib yuborilib, "baquvvat, abjir va xushqad" tarzida berilgan. Bu esa muhim tasviriy detallarni yo'qotishga olib kelgan.

Asliyatdagi "his strength more stringy than massive" jumlasini rus tilida "...в драках он брал скорее увертливостью, чем силой..." tarzida ifodalanib, asosiy g'oya saqlangan holda stilistik jihatdan erkinlashtirilgan. O'zbekcha variantda esa bu ibora "... ortiqcha kучanmay, chapdastlik bilan raqibini yengardi" tarzida berilgan bo'lib, asl matnda mavjud bo'lmagan "ortiqcha kучanmay" iborasi qo'shilgan. Bu esa tarjimonning shaxsiy talqinidir va semantik aniqlikni biroz susaytiradi.

Shunday qilib, tarjima jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar tarjimonlardan nafaqat lingvistik, balki madaniy va kontekstual jihatlariga e'tibor qaratishni talab qiladi. Badiiy matnning pragmatik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish muallif niyatining to'laonli ifodalanishini ta'minlaydi.

Tarjimaning pragmatik quvvatini aniqlash esa matnning badiiy-estetik ta'sir darajasi va o'quvchiga yetkazilgan hissiyotlar orqali aniqlanadi. Kitobxon tarjima matnida asliyatdagi zavq va tuyg'ularni his qila olishi kerak. Shu bois, tarjimaning pragmatik missiyasi — o'quvchida muallifga xos emosional va estetik ta'sirni uyg'otishdir.

Tarjima faoliyatida pragmatik muvozanatga erishish tarjimondan manba matndagi har bir voqelik va tushunchani to'liq anglashni, ya'ni chuqur ekstralingvistik bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi. Bu esa tarjimaning asliyatga sodiqligini ta'minlashda muhim omillardan biridir.

Misol tariqasida quyidagi parchaga e'tiborimizni qaratib o'tsak: "And Praps is no better. His 'Hemlock Mosses,' for instance, is beautifully written. Not a comma is out of place; and the tone—ah!— is so lofty. He is the best-paid critic in the United States. Though Heaven forbid! he's not a critic at all. They do criticism better in England. "But the point is, they sound the popular note, and they sound it so beautifully and morally and contentedly. Their reviews remind me of a British Sunday. They are the popular mouthpieces. They back up your professors of English, and your professors of English back them up. And there isn't an original idea in any of their skulls." [5] (Praps undan yaxshi emas. Masalan, uning "Zaharli moxlar" asari chiroyli yozilgan. Hech bir vergul joyidan o'zgartirilmagan; ohangi esa — oh! — nihoyatda balandparvoz. U Qo'shma Shtatlardagi eng ko'p haq oladigan tanqidchi. Lekin, xudo asrasin, u aslida tanqidchi ham emas. Angliyada tanqid qilishni yaxshiroq bilishadi. Asl gap shuki, ular ommaga yoqadigan ohangda yozadi — va bu ohangni juda

TILSHUNOSLIK

chiroyli, axloqiy va mamnun holda ifodalaydi. Ularning sharhlari menga Britaniyadagi yakshanba kunlarini eslatadi. Ular ommaning tiligidagi fikrlarni aytuvchi vositadir. Ular ingliz tili professorlarini qo'llab-quvvatlaydi, professorlar esa ularni qo'llab-quvvatlaydi, va ularning hech birining boshida birorta ham asl, yangi fikr yo'q.) Bu yerda muallif mashhur tanqidchi Prapsni kinoya bilan tilga olib, uning asarlari grammatik va texnik jihatdan mukammal bo'lsa-da, ijodiy mustaqillikdan yiroq, omma didiga mos yozuvlarni yaratishini tanqid ostiga oladi. Ushbu parchaning pragmatik mohiyati — tanqidchilarning yuzaki, silliqlangan, ammo tub mazmundan yiroq maqolalari orqali omma va akademik doiralari bilan o'zaro manfaatli aloqa o'rnatishi haqida tanqidiy fikr bildirishdir. Bu fikr kinoya, sarkazm va madaniy-badiiy konnotatsiyalar vositasida ifodalangan. Rus tiliga qilingan tarjimada: *"И Прэпс не лучше. "Хемлок Моссес", конечно, написан превосходно. Ни одной запятой нельзя выкинуть, а общий тон - ах, какой торжественный тон! Зато ему лучше всех и платят. Но, да простит мне господь эту дерзость, он, собственно, вообще не критик. В Англии лучше умеют критиковать. Все дело в том, что наши критики все время играют на популярных мотивах, и они звучат у них и благородно, и высоконравственно, и возвышенно. Их критические статьи напоминают мне воскресные проповеди. Они всячески поддерживают ваших профессоров английской филологии, а те за это поддерживают их И ни одной оригинальной идеи не гнездится у них под черепной коробкой."*[6] Bu kabi misollar aslyatdagi konnotatsion va ironik ohangni qisman saqlagan bo'lsa-da, ayrim joylarda, masalan, *"they are the popular mouthpieces"* jumlasini yumshatilgan. Shunga qaramay, *"British Sunday"* iborasining *"воскресные проповеди"* shaklida berilishi madaniy konnotatsiyani rus tilidagi o'quvchi uchun tushunarli qilishga xizmat qiladi. *"Praps ham undan qolishmaydi. Chunonchi, uning "O'rmon baxmal o'tlari" maqolasi g'oyat chiroyli yozilgan. Birorta ham vergulini olib tashlab bo'lmaydi, umumiy ohangiga kelsak, bay-bay, naqadar dabdabali! Qo'shma shtatlarda eng katta haq oladigan tanqidchi shu bo'ladi. Lekin, qo'polligimni xudoning o'zi kechirsin, ochig'ini aytganda, u aslo tanqidchi emas. Angliyada tanqid san'ati ancha yuksak saviyada turadi. Gap shundaki, bu singari tanqidchilar hamma vaqt barchaga ma'lum haqiqatni takrorlaydilar: bu haqiqat ularning yozuvlarida ham dabdabali, ham yuksak axloqiy tus kasb etadi. Ular og'izdan og'izga o'tib yuruvchi mulohazalar jarchisi, xolos. Ularning tanqidiy maqolalari yakshanbalik xutbani eslatadi. har qanday yo'l bilan bo'lsa ham, ingliz tilshunoslarini qo'llab-quvvatlaydilar, tilshunoslar esa, o'z navbatida, bu tanqidchilarni qo'llaydilar. Na ularning, na bularning bosh chanog'i ostida bironta mustaqil g'oyaning maskan qurganini ko'ra olasiz."*[7] Tarjimon *"popular mouthpieces"* iborasini o'zbek tilida *"og'izdan-og'izga o'tib yuruvchi mulohazalar jarchisi"* shaklida berib, pragmatik nuqtai nazardan kuchli tanqidiy ohangni juda muvaffaqiyatli tarzda yetkazgan. Shuningdek, *"ah! Lofty so lofty!"* degan ifoda o'zbek tilida *"bay-bay, naqadar dabdabali!"* tarzida ekspressivlik bilan to'g'ri aks ettirilgan. *"Qo'shma Shtatlarda eng katta haq oladigan tanqidchi ..."* degan jumla orqali esa tarjimon madaniy kontekstni e'tiborga olgan holda ektralingvistik aniqlikni qo'shgan.

Manba matnda uchraydigan *"British Sunday"* ifodasi rus tilida *"yakshanbalik xutba"* deb tarjima qilingan. Biroq bu ibora o'zbek o'quvchisi uchun to'liq tushunarli bo'lmasligi mumkin, chunki ingliz jamiyatidagi diniy hayot tafsilotlari barcha o'zbek kitobxonlari uchun tanish emas. Shu sababli, *"British Sunday"* iborasi tarjimada quyidagicha berilishi taklif etiladi:

"... tanqidiy maqolalar esa, axloqiy nasihatlar bilan to'la, tantanavor yakshanba xutbasini eslatadi".

¹ *"British Sunday"* — ingliz madaniyatida xotirjam, diniy ruhda o'tadigan, sokin yakshanba kunlariga nisbatan kinoyaviy ifoda.

Bu yondashuv orqali o'quvchiga manba matndagi *"British Sunday"* ifodasining madaniy va axloqiy kontekstdagi ohangi tushunarli bo'ladi, tarjimada tushunmovchilik yoki begonalik holati yuzaga kelmaydi. Shu bilan birga, muallif uslubining pragmatik va stilistik xususiyatlari ham saqlanib qoladi.

Umuman olganda, tarjimada pragmatik yondashuv faqat semantik mazmunni yetkazish bilan cheklanmay, balki matn kontekstida yashiringan niyat, madaniy fon va kommunikativ vaziyatni chuqur anglab, ularni maqsadli o'quvchiga mos shaklda ifodalashni talab etadi. Aynan shunday yondashuv orqaligina matn o'quvchida originalga yaqin ruhiy ta'sir uyg'ota oladi va muallif maqsadi to'liq yetkaziladi.

Tilshunos olimlar V.N. Komissarov, Ya.I. Retsker va V.I. Tarxovning ta'kidlashicha, tarjima nazariyasida uning pragmatik jihatlariga alohida e'tibor qaratish lozim[4]. Ularning fikriga ko'ra:

1) tarjimon manba tilidagi so'zlarning faqat lug'aviy emas, balki ularning yashirin, konnotativ va nutqdagi pragmatik ma'nolarini ham to'g'ri yetkazishi kerak;

2) tarjimonning asosiy vazifalaridan biri — har bir ifodani aniqlik bilan tarjima qilish bo'lib, bu uning pragmatik yondashuv darajasini belgilaydi;

3) manba matni va tarjima matni o'rtasida kommunikativ ta'sir kuchining teng bo'lishini ta'minlash uchun tarjima pragmatik moslashtirishni talab qiladi, ya'ni u o'quvchi ongiga ayni shunday ma'no va ta'sirni yetkazishga qaratilgan bo'lishi zarur.[4]

"Martin Iden" romanidagi *"She was vexed with him, and as she walked besides him she had a vague feeling of outrage... But when he took her in his arms at the door and kissed her good night in tender lover-fashion, she forgot everything in the outrush of her own love to him."* [5] parchasi stilistik jihatdan boy bo'lib, unda metafora va metonimiya kabi badiiy tasvir vositalari qo'llangan. Bu ifodalarni lingvopragmatik nuqtai nazardan tahlil qilganda, *"vexed"* so'zining semantik yukiga e'tibor qaratish lozim. Ushbu leksema asabiylik, ranjish yoki ruhiy iztirob holatini bildiradi va kuchli hissiy ekspressiyani ifodalovchi emotsional so'z sifatida namoyon bo'ladi. Bunday leksik birliklar tarjimada bevosita kayfiyat va ichki kechinmalarni yaratish uchun muhim ahamiyatga ega.

"Vague feeling of outrage" ifodasida *"vague"* (noaniq) va *"outrage"* (g'azab, achchiq ranjish) o'rtasidagi semantik qarama-qarshilik mavjud bo'lib, bu tuyg'uning aniq emasligini bildiradi. Bu holat bilvosita anglashni talab qiluvchi, ya'ni metonimik xarakterga ega. Ushbu birlikma psixologik metafora sifatida qabul qilinadi, chunki hissiy holat mustaqil mavjudlik darajasiga ko'tariladi. *"Outrush of love"* esa muhabbatning kuchli to'liqini sifatida tasvirlangan bo'lib, bu metafora personifikatsiyalash orqali muhabbatni harakatdagi, nazorat qilib bo'lmaydigan kuchga aylantiradi. *"Outrush"* so'zi muhabbatning ichki portlovi, yurakdan toshib chiqishi kabi obrazni hosil qiladi.

Mazkur ifoda rus tiliga quyidagicha tarjima qilingan: *"Она была рассержена на него... у неё было смутное чувство негодования... Но когда он обнял её у двери и поцеловал на прощание, как влюблённый, она забыла обо всем в порыве своей любви к нему."* [6] Bu tarjimada originaldagi semantik va emotsional qatlamlar asosan saqlangan. Xususan, *"vexed"* – *"рассержена"*, *"vague feeling of outrage"* – *"смутное чувство негодования"*, *"outrush of love"* – *"порыв любви"* shaklida ifodalangan bo'lib, bular pragmatik ma'no va konnotatsiyani to'laqonli tarzda o'zida mujassamlashtiradi.

O'zbek tilidagi variant esa quyidagicha keltirilgan: *"Bu hol Rufning izzat-nafsiga qattiq botgan edi, u Martin bilan yonma-yon ketib borarkan, ranjiganini elas-elas his eta boshladi... Lekin Martin Rufning uyi eshigi oldida u bilan xayrlasharkan, uni quchoqlab, mehr bilan o'pganida, yana muhabbat hissiga berilgan Ruf hamma narsani unutib yubordi."* [7]

Bu tarjimada *"vexed"* va *"vague feeling of outrage"* ifodalari *"izzat-nafsiga botgan"* va *"elas-elas ranjidi"* shaklida yumshatilgan va soddalashtirilgan. *"Outrush of love"* ning hissiy kuchi esa *"muhabbat hissiga berildi"* tarzida berilib, uning ichki portlovchi dinamizmi to'liq ifodalanmagan. Asl matnda o'quvchi Rufning g'azab va sevgining to'satdan yuzaga kelgan to'liqini o'rtasidagi ziddiyatli ruhiy o'zgarishlarga guvoh bo'ladi. Ruscha tarjima bu dinamizmdan to'liq foydalanib, emotsional holatni chuqur aks ettirgan bo'lsa, o'zbekcha talqinda ushbu keskinlik silliqashtirilgan, natijada dramatiklik zaiflashgan.

Shuningdek, tarjimada pragmatik nuqtai nazar yetarlicha e'tiborga olinmagan. Rus tilidagi variant o'quvchiga originaldagi ruhiy o'zgarishlarning ifodasini to'laqonli etkazgan bo'lsa, o'zbek tilidagi tarjima ba'zi joylarda poetik bo'lsa-da, illokutiv kuchi pastroq bo'lgan.

V. Komissarovning fikricha, tarjimonning vazifasi faqat so'zlarni emas, balki ularning ortida yashiringan niyatlar, presuppozitsiyalar va konnotativ ma'nolarni ham to'g'ri talqin qilishdir. Shu boisdan, ushbu parchani quyidagicha tarjima qilish ko'proq maqsadga muvofiq bo'ladi: *"U Martinning gaplaridan g'ash bo'ldi... qalbida noaniq bir ranjish hissi jo'sh urdi... Ammo Martin uni eshik oldida mehr bilan quchoqlab, xayrlashuv o'pichini berganida, Ruf o'z sevgisining to'liqini ichida hamma g'ashliklarni unutdi."*

Bu tarjimada *"vague"* (noaniqlik), *"outrage"* (ichki norozilik), *"outrush"* (jo'shqinlik) kabi emotsional va semantik elementlar saqlangan bo'lib, semantik va pragmatik uyg'unlik tiklangan.

TILSHUNOSLIK

"Muhabbat to'liqini", "jo'shqin hislar og'ushida" kabi ifodalar esa metaforik boylik va stilistik muvozanatni ta'minlab, muallif niyatini yanada chuqurroq ochib beradi. Bu esa Komissarov va Tarxov ta'kidlaganidek, original va tarjima matni o'rtasida kommunikativ ta'sirning tengligini ta'minlash uchun muhim mezon hisoblanadi.

XULOSA

Jek Londonning *"Martin Iden"* hamda *"Oq So'yloq"* nomli asarlari lingvopragmatik yondashuv asosida tahlil qilish uchun nihoyatda boy manba hisoblanadi. Ushbu adabiy matnlar muallifning o'ziga xos uslubi, xarakterlarga munosabati, madaniy konnotatsiyalar, shuningdek, ichki va ijtimoiy iztiroblarni o'zida mujassamlashtirgan chuqur semantik qatlamlarga ega. Shu bois, bu asarlar tarjimasida nafaqat lingvistik jihatdan, balki kontekstual, stilistik va psixologik nuqtai nazardan ham murakkab yondashuvni talab etadi.

Badiiy adabiyot tarjimasida lingvopragmatik yondashuv asosiy metodlardan biri sifatida qaraladi. Tarjimonning vazifasi – asar muallifining ovozini, emotsional ohangini, madaniy asoslarini va semantik mazmunini boshqa til muhitidagi o'quvchiga xuddi shunday kuch bilan yetkazishdir. Xususan, *"Martin Iden"*dagi shaxsiylik inqirozi va *"White Fang"*dagi hayvoniy instinktlar bilan insoniy ishonch o'rtasidagi ziddiyatni to'laqonli, adekvat tarjima qilish uchun tarjimondan keng qamrovli bilimlar – tilshunoslik, madaniyatshunoslik, psixologiya va stilistika bo'yicha puxta tayyorgarlik talab qilinadi.

Xulosa qilganda, lingvopragmatik tahlil orqali amalga oshirilgan badiiy tarjima faqatgina mazmunni yetkazib qo'ymay, balki muallifning ichki dunyosiga, asarning emotsional va madaniy qatlamlariga ham sodiq qolgan holda o'quvchiga ta'sirchan shaklda etkazadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Snell-Hornby M. Translation Studies: An Integrated Approach.-Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1988/1995. – 184 p.
2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика.- Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008.- 48 б.
3. Хошимова Д.М. Мумтоз асарлар таржималарида қиёслаш услуги. –Наманган: Чуст матбаа дизайн,2022.–Б.17.
4. Комиссаров В.Н. , Рецкер Я.И., Тархов В.И. Пособие по переводу с английского языка на русский. – М.: Высш. Шк., 1965. – С.92.
5. Martin Eden, by Jack London, ebook #1056 November 25, 2004.
6. Источник Джек Лондон. Мартин Иден/ Роман. Кишинев, Гос. Издательство Молдавии, 1956.
7. Jek London, Martin Iden. Ruschadan Qodir Mirmuhammedov tarjimasida. "Jahon adabiyoti javohirlari" turkumi-T.: "ILM-ZIYO-ZAKOVAT", - 2021.480b.
8. Jek London, Oq So'yloq. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent, 2010.
9. Jack London. White Fang. <http://originalbook.ru>
10. Джек Лондон. "Белый клык" Перевод Н.Волжиной. Москва. Металлургия. 1979.